



SANOAT KORXONALARINI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALAR O'RNI

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

O'roqboyev Asilbek

Guliston Davlat Universiteti talabasi

G'ozibekov Abbas

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Xasanov Jaloliddin

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Abstract: Ushbu tezisda bugungi rivojlanish davrida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bu bo'yicha qilinadigan ishlar va uning statistik tadqiq etishning ilmiy uslubiy asoslari ochib berilgan va sanoat korxonalari faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek bugungi rivojlangan davrda sanoat korxonalarini inson, davlat, jamiyat hayotidagi o'rni haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, korxonalar, innovatsiya, qo'shimcha qiymat, diversifikatsiya, omil, moliyaviy-iqtisodiy resurslar.

Kirish

Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarini muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlanishida esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati yuqoridir. Chunki sanoat tarmoqlari iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliyashtirilishini rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o'sishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan mamlakatlar amaliyoti ko'rsatishicha, ular muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida, xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalaridagi tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan.

Tahlil va natija

Korxonalar innovatsion faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasi o'zgarishi ma'lum bir omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishni obyektiv va har tomonlama tadqiq etish davomida, unga ta'sir o'tkazuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha ishlab chiqilmagan bo'ladi.

Innovatsion faoliyat omili deganda, korxonona innovatsion o'sishining jadalligi va tavsifiga ta'sir o'tkazuvchi shartlar, sabab va ko'rsatkichlarni tushunamiz. Bunda innovatsion jarayon, ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida maydonga chiqadi. Har qanday korxonaning maqsadi uning faoliyati asosida avvaldan o'ylangan pirovard natijaga erishishdir. Korxonona o'z oldiga ongli ravishda maqsad qo'yib, fikriy model yarata oladi va obyektiv sharoitlarni hisobga oladi. **So'ngi yillarda Sanoat korxonalarining soni qanchaga ko'paydi?**

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

| № | Viloyatlar | Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini | Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini |
|----|----------------------|--|--|
| 1 | Farg'ona | 11058 | 1965 |
| 2 | Samarqand | 8854 | 1642 |
| 3 | Qashqadaryo | 5605 | 1641 |
| 4 | Namangan | 7888 | 1497 |
| 5 | Toshkent Sh | 16779 | 1564 |
| 6 | Toshkent.V | 9998 | 1317 |
| 7 | Xorazim | 4794 | 1187 |
| 8 | Andijon | 9887 | 1062 |
| 9 | Navoi | 3985 | 962 |
| 10 | Jizzax | 4080 | 867 |
| 11 | Qoraqolpag'Iston.Res | 3633 | 853 |
| 12 | Surxandaryo | 4853 | 679 |
| 13 | Buxoro | 5089 | 652 |
| 14 | Sirdaryo | 2302 | 320 |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini bo'yicha Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yuqori o'rinlarni egallayotgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Korxonaning innovatsion faoliyatiga uning sohaga tegishliligi alohida ta'sir o'tkazadi. U aytarli darajada xususiy, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Boshqa shu kabi sharoitlarda ham aynan qaysi sohaga tegishlilik omili investitsiyalarni o'ziga jalb qilish ko'lamini oshiradi.



Xulosa

Bizning fikrimizcha, tadqiqotning natijalari korxonada innovatsion faoliyati darajasini aniqlash va amalga oshirishni amalga oshirishga imkon beruvchi va oqibatda sanoat korxonalarini innovatsion faoliyatini baholash usullarini takomillashtiruvchi kompleks ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga sharoit yaratib beradi. Shuningdek, har bir hududda sanoat korxonalarini innovatsion asosda rivojlantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning lokomotivi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman, xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda sanoat korxonalarini mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi etakchi drayver bo'lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun, sanoat korxonalarini yanada rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khasanova G.D., Rashidov A. Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyalarni shakllantirish. Buxoro. 2014. 308-310 b.
2. Burxanov, A. (2023). QISHLOQ XO 'JALIGIDA INNOVATSIYON IQTISODIYOTGA O 'TISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(4), 37-42.
3. Бурханов, А. (2023). ИННОВАЦИЯ–ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ДОХОДОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА. *Innovatsion texnologiyalar*, 50(02), 121-129.
4. Gulizahro, T., Mamlakat, D., Sarvinoz, A., & Sabina, J. (2023). AGROSANOAT MAJMUASINING RAQAMLI PLATFORMALARINI RIVOJLANTIRISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 49-54.
5. Марупова, М. Х., Кубаев, А. С., & Хазратов, А. И. (2022). УСОВЕРШЕНСТВОВАТЬ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОВ С СИНДРОМОМ БОЛЕВОЙ ДИСФУНКЦИИ ВИСОЧНО-НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 2(5), 164–167. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1632>
6. Madina Hikmatuloevna Marupova, Aziz Saidolimovich Kubaev, & Alisher Isomidinovich Khazratov. (2022). THE ESSENTIAL ROLE OF DIAGNOSTIC AND TREATMENT METHODS FOR PATIENTS WITH TEMPOROMANDIBULAR JOINT PAIN DYSFUNCTION SYNDROME. *World Bulletin of Public Health*, 10, 141-142. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/1015>